

TEXNIK MUXANDISLAR KASBIY KOMPETENSIYALARINI FANLARARO ALOQADORLIK TAMOYILI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI

Islomova Nihola

Termiz muxandislik texnologiya instituti o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnik muxandis kadrlar tayyorlashda fanlar orasidagi bog‘lanishning didaktik tizimi, moxiyati yoritib berilgan. Fanlar orasidagi bog‘lanishning didaktik tizimini ta‘minlash o‘qitish metodlari va shakllarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Bu esa texnik muxandislarni o‘quv-bilish faoliyati bilan muxandislarning o‘qitish faoliyatining o‘zaro bog‘lanishi asosini tashkil qiladi. O‘qitishda fanlararo bog‘lanishining didaktik tizimni amalga oshirishda kelib chiqadigan muammolarni yoritish usullari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Didaktika, texnik muxandis, kompetentlik, tabiiy-matematik, metodologiya, malaka, ko‘nikma, kategoriya, axborot .

Annotation. This article describes the essence of the didactic system of connection between disciplines in the training of technical engineers. The provision of the didactic system of connection between disciplines is characterized by a variety of teaching methods and forms. This forms the basis for the interconnection of the training activities of technical engineers and the training activities of engineers. The methods of elucidating the problems arising in the implementation of the didactic system of interdisciplinary communication in teaching are described.

Keywords. Didactics, technical engineer, competence, natural-mathematical, methodology, qualification, skill, category, information.

O‘qituvchini uzluksiz ta’lim jarayoniga faol jalb qilinishi uning ijodkorlik salohiyatini, kompetentligini va pedagogik mahoratini, ijtimoiy va kasbiy mobilligini, uning fuqarolik pozitsiyasini va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan sifatlarini

rivojlantirishning bosh sharti hisoblanadi. Faoliyatning bu yo‘nalishida fanlararo bog‘lanishlar katta rol o‘ynaydi. Fanlararo bog‘lanishlarni ta’lim oluvchilar bilimining sifatini oshirishning didaktik sharti sifatida fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish zarurligi hamda ta’lim oluvchilarning dialektik fikrlashini rivojlantirishda o‘qitishning roli psixologik-pedagogik adabiyotlarda va tadqiqotlarda ko‘rsatib o‘tilgan. Ko‘p sonli tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, tabiiy-matematik turkum fanlarining dasturlari o‘zaro moslashmagan, tushunchalar, qonunlar, nazariyalarning tabiiy-matematik turkum fanlari uchun umumiyl talqini, shuningdek, ularni shakllantirishda izchillik yo‘q, ularda tabiat hodisalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar zaif aks ettirilganligi ta’lim oluvchilarning tabiiy-ilmiy fanlar bo‘yicha olgan bilimlari tarqoq bo‘lib qolyapti. Ularda atrof-olamning rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy tushunish, tabiiy fanlar asoslarini o‘rganishda olgan bilimlarini majmuaviy qo‘llash malakasi yo‘q. Oliy ta’limda tabiiy-matematik fan asoslarini o‘rganishning yuzaga kelgan an’anaviy tizimida bu kamchiliklarni bartaraf etishda fanlararo bog‘lanishlarning roli katta. Biroq, bizning kuzatishlarimiz va adabiyotlar tahlil shuni ko‘rsatdiki, agar fanlararo bog‘lanish masalalari u yoki bu darajada tadqiq qilingan va o‘rta umumiyl ta’limga nisbatan aniqlangan bo‘lsa, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘rta mакtabda bunday faoliyatni tashkil qilish va olib borishga kasbiy-pedagogik, metodik tayyorlash masalalari bugungi kunda yetarlicha tadqiq qilinmagan va yoritilmagan. Texnik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan davrda umumiyl o‘rta ta’lim maktabida fanlararo bog‘lanish amalga oshirishga yetarlicha tayyorlanmagan bo‘ladilar. Ularda maktab o‘quvchilari bilan darslarni va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni fanlarning o‘zaro bog‘lanish elementlarini hisobga olgan holda tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan. Tadqiq qilinayotgan fanlar bo‘yicha talabalarning o‘rta maktabdagi pedagogik amaliyoti davrida olib borilgan kuzatishlar va eksperimental ishlar shuni ko‘rsatdiki, talabalarda, masalan, fizika va kimyodan natijalarni olish uchun matematika apparatlaridan foydalanish yetarlicha rivojlanmagan, “Fizika” bilan “Matematika”, “Kimyo” bilan “Biologiya”, “Geografiya” bilan “Biologiya” orasidagi o‘zaro bog‘langan bilimlar yetarli emas va h.k. Fanlararo

bog‘lanishlarning metodologik muammolarini o‘rganishdan kelib chiqib, biz fanlararo bog‘lanishlarning didaktik yo‘nalishdagi masalalariga qisqacha to‘htalib o‘tishimizga to‘g‘ri keladi, chunki ular fanlararo bog‘lanishlarga nisbatan biror asosni (metodologik asosni hosil qiladi) va didaktik kategoriya sifatida qaraladi. Fanlararo bog‘lanishlarning didaktik kategoriylarining mohiyatini va ularning turlarini aniqlashga bo‘lgan yondashuvlar juda turli-tumandir. Tadqiqotchilarning fanlararo bog‘lanishlarning mohiyatini tushunishdagi va ularning turlarini sinflarga ajratishdagi ilmiy pozitsiyalarini tadqiqotning fanlararo bog‘lanishlar asosida hal qilinadigan konkret pedagogik vazifalari, fanlararo bog‘lanish muammolarining o‘rganilayotgan jihatlari va ularni hal qilinish darajasi, konkret bog‘lanishlarni ajratib ko‘rsatish kabi omillar belgilab beradi. Shunday qilib, didaktikada o‘qitishda fanlararo bog‘lanish to‘g‘risidagi masalalarni hal qilishda bir tomonlama yondashuvni bartaraf etish an’anasi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ularni ajratib ko‘rsatishning majmuaviy mezonlari ishlab chiqilmoqda, ushbu fenomenni tizimli tahlil qilish elementlaridan foydalanilmoqda. Tizimli yondashuv o‘qitishda fanlararo bog‘lanishning ko‘p jihatligi va yarim funksionalligiga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quv fani hamda o‘quv jarayoni tuzilishining har bir elementidan (uning mazmuni, metodlari, tashkil qilish shakllari) keng foydalanish bilan bog‘liq. Bunday tahlil fanlararo bog‘lanishlarning turlari va mohiyatini aniqlash metodi sifatida namoyon bo‘ladi. Didaktika ilmiy bilish bilan maktab ta’lim mazmuni o‘quv fanining tuzilishi o‘rtasida ma’lum bog‘lanish borligidan kelib chiqadi. Umumiyo‘rta ta’lim mакtabida o‘rganiladigan fanlarning elementar asoslari ilm sohalarining eng asosiy natijalaridan eng zarur bilimlarni to‘playdi va ular oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv fanlarning izchil asosini tashkil qiladi [1]. Modomiki, fanlararo bog‘lanishlarning didaktik asoslari o‘quv dasturlarining turli elementlarini birlashtirishni nazarda tutuvchi o‘quv bilimlarining integratsiyasida ifodalananar ekan, shuning uchun ham birgina hodisani talqin qilishda qarama-qarshiliklarni istisno qilishni talab etishi kelib chiqadi, o‘rta maktabda o‘quv fanlarning bir-biriga muvofiqligi esa tabiiy-matematik turkum o‘quv fanlaridan har birining metodikasini muvaffaqiyatli ishlab chiqishning zarur didaktik sharti hisoblanadi. Shuning uchun ham didaktika konkret o‘quv fanining metodikasini ishlab chiqishni

boshqa o‘quv fanolarining metodikasi bilan muvofiqlashtirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq deb hisoblaydi, aynan shuning o‘zi oliy pedagogika mакtabida fanlararo bog‘lanishni o‘rganishning asl mohiyati hisoblanadi.[2] Didaktikada fanlararo bog‘lanishni sinflarga ajratishning ob‘ektiv asosi hisoblangan o‘quv fanlari tuzilmasining umumiyligidan hamda o‘quv jarayoni tuzilmasidan kelib chiqib, ularning uchta asosiy yani mazmunli-axborot, operatsion-faoliyatli va tashkiliy-metodik tiplarga ajratilishi aniqlangan. Har bir o‘quv fani bu bir-biriga yaqin fan sohalaridan olingan ma’lumotlarni ham o‘z ichiga oladigan ilmiy bilimlarning didaktik qayta ishlangan tizimi [3] O‘quv fanining har qanday tuzilmaviy elementi o‘qitish jarayonida fanlararo bog‘lanish asos bo‘lib xizmat qiladi. Har bir o‘quv fanining (maxsus ilmiylardan tashqari) mazmunida metodologik va mafkuraviy bilimlarning elementlari yotadi. Fanlararo bog‘lanishlarni bilimlarning mazmuni asosida mazmunli-axborotli tipga kiritish mumkin. Bu tipdag‘i bog‘lanish turlari quyidagilarga bo‘linadi:

- 1) ilmiy bilimlarning tarkibiga ko‘ra (faktologik, tushunchaviy, nazariy);
- 2) bilish to‘g‘risidagi bilimlari bo‘yicha (falsafiy, tarixiy-ilmiy, ya’ni gnostik, semiotik, mantiqiy);
- 3) qadriyatlarga yo‘naltirilganlik haqidagi bilimlar bo‘yicha (mafkuraviy, ya’ni dialektik-materialistik, g‘oyaviy-siyosiy, siyosiy-iqtisodiy, etik, estetik, huquqiy).

Turli o‘quv fanlarini o‘qitishda texnik muxandislarning o‘quv-bilish faoliyatidagi va malakalaridagi usullarni operatsion-faoliyatli tipga kiritish to‘g‘ri bo‘ladi deb o‘ylaymiz. Dolzarb faoliyatli bog‘lanishlarning o‘ziga xos tipini ajratib ko‘rsatish va amalga oshirish zarurati bilish faoliyatini aniqlovchi mazmuniy va jarayoniy elementlardan (fan metodlari; bilishning ijodiy faoliyatni o‘z ichiga oluvchi umumlashgan usullari; o‘ziga xos malaka va ko‘nikmalar; fan tillari) tashqari ta’lim oluvchilarning o‘qish jarayonidagi boshqa tur faoliyatlarini ham o‘z ichiga oladi o‘quv fanining tuzilmasi bilan belgilangan va bu faoliyat turlari pedagogika oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak texnik muxandislarni tayyorlash predmetiga aylanishi zarur, chunki aynan texnika oliy ta’lim muassasasida talaba mакtab o‘qituvchisi faoliyatining bo‘lajak kasbiy modelini mohiyatan o‘zlashtiradi O‘quv faoliyati murakkab sintetik xususiyatga ega. Uning asosini bilish faoliyati

tashkil qiladi, lekin o‘quv bilish jarayonida talabalar boshqa faoliyat elementlarini amalga oshiradilar: amaliy, kommunikativ, estetik, qadriyatli- yo‘naltirilgan. Dolzarb faoliyat tipidagi fanlararo bog‘lanishlarning turlari quyidagi mezonzarga ko‘ra farq qiladi:

1) nazariy bilimlarni qo‘llashda amaliy faoliyat usullariga ko‘ra – “amaliy”, bunday bog‘lanishlar bo‘lajak texnik muxandislarda harakat, mehnat, konstruktiv-texnik, hisoblash-o‘lchov, hisoblash, eksperimental, kashfiyotchilik, nutq bilim va malakalarini hosil qilishga yordam beradi;

2) yangi bilimlarni “izlab topish”da o‘quv-bilish faoliyati usullari bo‘yicha “bilish”, bunday bog‘lanishlar fikrlash, ijodkorlik, o‘quv, tashkiliy-bilish (rejalashtirish, tashkil qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilish), mustaqil faoliyat kabi o‘qishning umumlashgan malakalari;

3) qadriyatli-yo‘naltirilgan faoliyat usullariga ko‘ra “qadriyatli-yo‘naltirilgan”, bunday bog‘lanishlar texnik muxandislarning dunyoqarashlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan baholash, kommunikativ, badiiy-estetik faoliyat malakalari hosil qilish uchun zarur.[4]

Fanlararo bog‘lanishlar o‘qitish jarayonida amal qiladilar va u yoki bu metodlar va tashkiliy shakllar yordamida amalga oshiradilar. Bu tashkiliy-metodik bog‘lanishlarning dastlabki ikki tipiga bo‘ysunadigan, mustaqil ahamiyatga ega bo‘lgan ikkilamchi bog‘lanishni ajratib olish imkonini beradi. Bu tipdagi fanlararo bog‘lanishlar o‘qitish metodlarini, usullarini va tashkil qilish shakllarini boyitadi.

Ular texnik muxandislar o‘quv fanlari uchun umumiyl bo‘lgan kasbiy bilim va malakalarni o‘zlashtirishning samarali yo‘llarini ta’minlaydi. Bu tipdagi bog‘lanish turlari quyidagilarga bo‘linadi:

- 1) turli ko‘rinishdagi bilimlardagi bog‘lanishlarni o‘zlashtirish usullari bo‘yicha (reproduktiv, izlanish, ijodiy);
- 2) amalga oshirish qamrovi bo‘yicha (kurslararo, turkum ichida, turkumlararo);
- 3) amalga oshirish vaqt bo‘yicha (izchil, birgalikda, istiqboldagi);
- 4) fanlarning o‘zaro bog‘lanish usuli bo‘yicha (bir tomonlama, ikki tomonlamala, ko‘p tomonlama);

- 5) amalga oshirish doimiyligi bo'yicha (epizodik, doimiy, tizimli);
- 6) o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish darajasi bo'yicha (auditoriyada, mavzuviy va b.);
- 7) talabalar va o'qituvchilar ishini tashkil qilish shakllari bo'yicha (individual, guruhda, jamoada).

Fanlararo bog'lanishlar o'quv va darsdan tashqari faoliyatlarning turli shakllarida tashkil qilinadi: umumlashtirish mashg'ulotlarida, majmuaviy seminarlarda, amaliy mashg'ulotlarda, ma'ruza mashg'ulotlarida, majmuaviy ekskursiyalarda, darsdan tashqari topshiriqlarda, fanlararo fakultativlarda, konferensiyalarda, mavzuviy kechalarda, maxsus kurslarda va maxsus seminarlarda, texnik muxandis ilmiy jamiyatlarida va h.k. Bunda talabalar o'quv faoliyatining hamda o'qituvchining o'rgatuvchi faoliyatining xarakteri turlicha bo'ladi (individual, guruhda va jamoaviy). Psixologo-pedagogik va metodik fanlar bo'yicha to'liq muvofiqlashtirilgan o'quv dasturlari bo'lмаган hollarda fanlararo bog'lanishlar amaliyotda turlicha amalga oshiriladi: matabning yangi dasturlari talablariga mos ravishda ("dasturiy" bog'lanishlar), o'quv fanlarining yoki butun pedagogika oliy ta'lim muassasasidagi o'quv-tarbiyaviy jarayon tizimida (o'qituvchilarning tashabbusiga ko'ra), auditoriyadan tashqari ish bilan birgalikda keng miqyosda foydalangan holda.[5]

Texnika oliy ta'lim muassasida o'qitish jarayonida "fanlararo bog'lanishlar" tushunchasining ko'p ma'noligi va ko'p qirraliligi shuni ko'rsatdiki, ushbu tushunchaning mohiyati bir xil ta'rifga ega bo'lishi mumkin emas ekan. Fanlararo bog'lanishlar hodisasi ko'p o'lchamli. Ular talabalarni tayyorlashni tashkil qilish mazmuni, metodlari va shakllari bilan cheklanmaydi. Mazkur tushunchaning ma'noli ahamiyatini tartibga solish, xuddi fanlararo bog'lanislarning turlarini tartibga solish kabi, faqatgina tizimli yondashuv asosida bo'lishi mumkin. "Fanlararo bog'lanish" didaktik hodisasi tizim sifatida uchta elementdan iborat tuzilmaga ega:

- 1) bitta fan sohasiga oid bilimlar (malakalar);
- 2) boshqa fan sohasiga oid bilimlar (malakalar);
- 3) bu bilimlar (malakalar)ning o'qitish jarayonidagi bog'lanishlari.

Bu elementlarning har biri variativligi bilan ajralib turadi. Bog‘lanishlar o‘qitishning turli fan sohalarini qamrab oladi: ijtimoiy, tabiiy, texnika fanlari. Bilimlarning birlashtirilishi (sintezlash) har bir konkret holda ma’lum bir bilish vazifasiga ega umumiyligi ob’ektlardagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushuntirish, umumlashtirish va yangi umumlashgan bilimni keltirib chiqarish, umumiyligi tushunchalarni konkretlashtirish, bir-biriga yaqin hodisalarini sinflarga ajratish, umulashgan g‘oyalarni isbot qilish va boshqalar.[6] Fanlararo bog‘lanish mantiqiy tugallangan ko‘rinishda turli o‘quv fanlari tuzilmalarining elementlari orasidagi anglanilgan, umumiyligi shaklda ifodalangan munosabatdir. Turli fanlardan olingan bilimlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni o‘zlashtirish tufayli shakllantirilgan yangi bilim bunday munosabatga misol bo‘lishi mumkin. Bu bilim o‘zining mazmuni va shakllantirilish usuliga ko‘ra o‘quv bilishda fanlararo xususiyatga ega bo‘ladi (masalan, fizika-matematik, fizika-kimyoviy, biologo-geografiy, biokimyoviy, tarixiy-geografik, siyosiy-iqtisodiy, adabiy-tarixiy tushunchalar). Turli fanlarda qo‘llaniladigan o‘quv-bilish faoliyatları o‘rtasidagi bog‘lanishlarni o‘zlashtirish natijasida shakllantirilgan yangi umumlashgan malaka ham bunday munosabatga misol bo‘lishi mumkin. Yangi umumlashgan malaka turli o‘quv fanlarida ular uchun umumiyligi bo‘lgan fanlararo bilimlarni qo‘llashda foydalanilishi mumkin bo‘lganligi sababli fanlararo malaka hisoblanadi (masalan, og‘zaki va yozma nutq malakalari, funksional, hisoblash, rasmiy-mantiqiy, hisoblash-o‘lchash, badiiy-tasviriy, grafik, fikrlash faoliyatining umumiyligi malakalari va b.). Yangi, fanlararo asosda umumlashtirilgan, ta’lim oluvchida o‘qituvchi orqali g‘oyaviy-ahloqiy ongini shakllantiradigan bilimlarning aksiologik, qadriyatli jihatlari bunday munosabatlarga misol bo‘lishi mumkin.[7]

Ta’lim oluvchilarda fanlararo bilim, malaka va qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning samaradorligi o‘qitish jarayonida fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish usullari (metodik usullar, o‘quv ishlari metodlari, o‘quv jarayonini tashkil qilish sharoitlari va shu k.) bilan aniqlanadi: o‘qitishda, ularning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi va yangi bilish vaziyatlarida qo‘llanilishi. Har tomonlama fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish natijasida magistral pedagogik yo‘l, umumiyligi an’ana, o‘qituvchilarning harakat strategiyasi hosil qilinadi. Shunday qilib, bu yerda gap o‘quv

jarayonini didaktik tashkil qilish, pedagogik va metodik ish tizimini konstruktiv ishlab chiqish haqida boradi, shuning uchun ham fanlararo bog‘lanishlar bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy tayyorlash jarayonida didaktik tizimning loyihalash tamoyili rolini o‘ynaydi.

Xulosa

Shunday qilib, fanlararo bog‘lanishlar o‘qitish jarayonida uning asosiy vazifalarini (ta’limiy, rivojlantiruvchi, tarbiyaviy) amalga oshirish sharti sifatida namoyon bo‘ladi va ularning o‘zi metodologik, konstruktiv va shakllantiruvchilik vazifalarini bajaradi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, fanlararo bog‘lanish fenomenini o‘rganishda quyidagi jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: falsafiy, umumpedagogik, xususiy didaktik, metodik, psixologik. Fanlararo bog‘lanishlar tizimlilik falsafiy tamoyilining aniq didaktik shakli bo‘lganligi sababli metodologik vazifalarni bajaradi.

Adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev O‘. Didaktik prinsiplar tizimi // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2002. – № 4. – B. 20.
2. Korolkova S.A. Компетентностный подход в профессиональном обучении // Вестник ВолГУ. Серия 6. – Вып. 11. 2008-2009. – С. 29-33.
3. Kulagin.I.G. Идея межпредметных связей в истории педагогики. // Советская педагогика. – 1964. – № 12.
4. Kuzmina N.B. Педагогическое мастерство учителя как фактор развития способностей учащихся // Вопросы психологии. – 1984. – №1. – С.16.
5. Taylaqov N.I. Ta’lim tizimida zamонавиј axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbollari // Ta’lim va tarbiya. –Toshkent: 2002. – № 1-2. – 27-30 b
6. Fayzullaev R. Kacb ta’limi o‘qituvchilarining axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish // Kasb-hunar ta’limi. – Toshkent: 2014. – № 4. – B. 9-11.
7. Xasanov A.A., Mamatkarimov K.Z Межпредметные связи как дидактическое условие повышения эффективности учебного процесса // Молодой ученый. — 2016. — № 20 (124). — С. 738-741. — URL: <https://moluch.ru/archive/124/33275/> (дата обращения: 26.07.2021).